rilgan. O‘zbek tilida so‘zning uchinchi ma’nosida hech qanday maxsus belgisiz so‘zning matematika bilan aloqador ma’nosi izohlangan va misolda *algebraik ifoda* deb ko‘rsatish vositasida so‘zning *algebraik* so‘zi bilan birikkan holatda ishlatilishi ko‘rsatilgan.

Ingliz tili izohli lug‘atida ham *expression* so‘zi xuddi o‘zbek tiliga deyarli o‘xshash tarzda izohlangan, ammo so‘zning aynan matematikaga mansubligi xususiy leksikografik belgi bilan keltirilgan. Bu lug‘atda ham *expression* so‘zi *algebraic* so‘zi bilan birikishi misolda keltirilgan.

Shunday terminologik birliklar borki, bularning aynan matematik terminologik ma’nosi umumadabiy izohli lug‘atlarda berilmagan. Masalan, *nur – ray* terminining terminologik ma’nosi tahlil qilinayotgan har ikkala izohli lug‘atda ham topilmadi. Bu termin maxsus tarjima lug‘atida va ingliz tilida matematik terminlar izohli lug‘atida, “Dictionary of Mathematics terms”[1] maxsus terminologik izohli lug‘atida berilgan. Masalan, *Ray – a ray is like half of a line: it has one end point, and then goes off forever in a straight line/ you can think of a light ray from a star as being a ray, with the endpoint located at the star.*[2]

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da[3] bu termin *nur – (matematikada) yarim to‘g‘ri chiziq* kabi izohlangan. Shu o‘rinda o‘zbek tilida maxsus matematik terminlar izohli lug‘ati shu kungacha yaratilmaganligini aytib o‘tish o‘rinlidir.

**Xulosa va takliflar.** Umumadabiy va terminologik izohli lug‘atlarda terminlarning izohlanishi bir-biridan farq qiladi, shu sababli har bir sohaning terminologiyasini o‘rganish uchun maxsus terminologik izohli lug‘atlar yaratilishi kerak degan xulosaga kelamiz. Chog‘ishtirilayotgan har ikkala tillarning umumadabiy izohli lug‘atlarida umumiste’mol so‘zlarining izohi asosiy tamoyil bo‘lganligi sabab, terminologik birliklar izohiga katta e’tibor qaratilmagan. Shunga asosan, muayyan sohaning terminlarini uyg‘unlashtirish, unifikatsiyasiga erishish, ikki tilli (inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha) lug‘atini yaratishning leksikografik mezonlari va uslubiy yondashuvlari zaruriyati aniqlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. T., O‘zRFA “Fan”, 2013, 52-bet.

(2). Малаховский Л.В. Специальные термины в общем словаре: принципы отбора и толкования (на материале английской лексикографии). Проблематика определений терминов в словарях разных типов. Л., 1976, с. 226.

(3). Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2017, 190–191-бетлар.

(4). Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2002, 7-бет.

(5). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд (А-Д). Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006, 18-бет.

(6). Douglas Downing, PhD. Dictionary of Mathematics Terms. New York, Barron’s Educational Series, 2009, pp. 282–411.

(7). Ўзбекистон миллий энциклопедияси (А ҳарфи). Т., Давлат илмий нашриёти, 330-бет.

**Sapayeva Barno Shanazarovna (PhD, dotsent v.b., Ma’mun universiteti; e-mail: sapayeva_barno@mamunedu.uz; ORCID 01009-0001-6461-252X)**

## QARDOSH BO‘LMAGAN TILLARDA GAPNI BO‘LAKLARGA AJRATISH VA SO‘Z TARTIBI TADQIQIGA DOIR

***Annotatsiya.*** *Tilshunoslikda gapni tarkibiy qismlarga ajratish masalasi qadimdan e’tiborda bo‘lib kelmoqda. Bu yo‘nalishda yuzlab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay, mazkur masala hanuzgacha to‘liq o‘rganilmagan va ayrim jihatlari hanuz sirli bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada gapni bo‘laklarga ajratish va so‘zlarning tartibini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tarixiy tadqiqotlar yoritiladi. Asosiy urg‘u bu boradagi tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari va ularning izlanishlarini tahlil qilishga qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *gaplarda so‘z tartibi, tema, rema, kommunikativ yondashuv.*

[1] Douglas Downing, PhD. Dictionary of Mathematics Terms. New York, Barron’s Educational Series, 2009, 411 p.
[2] Douglas Downing, PhD. Dictionary of Mathematics Terms. New York, Barron’s Educational Series, 2009, p. 282.
[3] Ўзбекистон миллий энциклопедияси (А ҳарфи). Т., Давлат илмий нашриёти, 330-бет.

**Сапаева Барно Шаназаровна (PhD, и.о. доц., Университет Маъмуна; e-mail: sapayeva_barno@mamunedu.uz)**

## К ИЗУЧЕНИЮ ЧЛЕНЕНИЯ ПРЕДЛОЖЕНИЯ И ПОРЯДКА СЛОВ В НЕРОДСТВЕННЫХ ЯЗЫКАХ

***Аннотация.*** *Несмотря на то, что вопрос членения предложения на составляющие элементы начал изучаться в лингвистике много веков назад и по данной тематике накоплен обширный научный материал, проблема до сих пор сохраняет свою сложность и остается не до конца раскрытой. В статье прослеживается развитие научных представлений о структуре предложения и порядке слов в разных языках. Основное внимание сосредоточено на анализе трудов лингвистов, исследовавших указанные аспекты.*

***Ключевые слова:*** *порядок слов в предложениях, тема, рема, коммуникативный подход.*

**Barno Sapayeva Shanazarovna (PhD, Assoc. Prof., Mamun University; e-mail: sapayeva_barno@mamunedu.uz)**

## ON THE STUDY OF PARTS OF SENTENCES AND WORD ORDER IN UNRELATED LANGUAGES

***Annotation.*** *Although linguists have been investigating the segmentation of sentences for several centuries, and a substantial body of scholarly work has been produced on the topic, it continues to pose unanswered questions and remains insufficiently explored. This article explores the historical development of research on sentence segmentation and word order in linguistics. The primary emphasis is placed on examining the contributions and findings of linguists who have studied this area.*

***Key words:*** *word order in a sentence, theme, rheme, communicative approach.*

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri tilning kommunikativ xususiyatlari va uning funksional vazifalarini o‘rganishdir. Gapni bo‘laklarga ajratish masalasida turli tilshunoslar har xil yondashuvlarga amal qilgan. Ular aktual bo‘linish jarayonida gapni, odatda, ikki asosiy qismga – bayonning boshlanish nuqtasi va asosiy mazmuniy yadrosiga ajratishgan. Tilshunos olimlar ushbu tarkibiy qismlarga o‘z ilmiy yondashuvlariga qarab turli nomlar bergan: “mavjud ma’lumot – yangi ma’lumot”, “tema – rema”, “kontrast markazi”, “kontrastiv – non-kontrastiv”, “aniq – noaniq”, “ma’lum – noma’lum”, “bayon foni – bayon maqsadi” kabi atamalar mavjud. Hozirgi davrda esa bu komponentlar, asosan, “tema” va “rema” tushunchalari orqali ifodalanmoqda.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Endi esa gapning kommunikativ tuzilishi, ya’ni aktual bo‘linishining tadqiqot tarixiga qisqacha nazar tashlaymiz.

Agar aktual bo‘linish nazariyasining shakllanish jarayoniga tarixiy-xronologik jihatdan yondashilsa, bu nazariyaning kamida uch asrlik tarixga ega ekani ayon bo‘ladi. Bugungi kunga kelib, gapdagi so‘z tartibi va aktual bo‘linish masalalariga oid juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. So‘nggi yigirma yil davomida gapning aktual bo‘laklarga ajratilishini ikki yoki undan ortiq tillar doirasida sinxron qiyosiy va tipologik jihatdan o‘rganishga bo‘lgan ilmiy qiziqish ortdi. Natijada quyidagi tillar o‘rtasida tadqiqotlar olib borildi: ingliz va tatar tillari,[1] rus va ingliz tillari,[2] rus va tojik tillari,[3] rus, boshqird va fransuz tillari,[4] o‘zbek va ingliz tillari[5] va boshqa tillar asosida ham ishlar bajarilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy mavzuni yoritishda qardosh bo‘lmagan tillarda gaplarni actual bo‘laklarga ajratish va gapda so‘z tartibi tadqiqiga doir ilmiy manbalar va olimlarning izlanishlari hamda fikrlari qiyosiy-chog‘ishtirma usulda o‘rganmildi. Shu usulda gapni bo‘laklarga ajratish va so‘z tartibini tadqiq qilishda har xil yondashuvlar kuzatildi va o‘ziga xos xulosa chiqarildi.

---

[1] Хисматова Ч.Г. Актуальное членение повествовательного предложения в английском и татарском языках. Автореф. дис. канд. филол. наук, Казань, 2004, 27 с.

[2] Брылева Н.П. Актуальное членение и синтаксическая структура предложения в английском языке. Дисс.. канд. филол. наук, М., 1978, с. 189; Сарымбетова А.А. Репрезентации темы и ремы в русском и английском языках. Автореф. дис. канд. фил. наук, Душанбе, 2019, с. 24.

[3] Юсупова, З.Р. Актуальное членение предложения в русском и таджикском языках. Дис. канд. филол. наук, Душанбе, 2006, с. 165.

[4] Саттарова А.Ф. Изучение актуального членения предложения в русском языке (в сопоставлении башкирском и французском). Дис. канд. пед, наук, М., 2002, с. 191.

[5] Бекчаев Ё.Дж. Сравнительный анализ актуального членения предложения в английском и узбекском языках. Автореф. дисс. канд. филол. наук, Душанбе, 2020, с. 26.

**Tahlil va natijalar.** Shuni unutmaslik kerakki, gapning aktual bo‘linishi nazariyasi bevosita so‘z tartibi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab u zamonaviy tilshunoslikda muhim yo‘nalishlardan biri sifatida shakllanib bordi.

Uzoq yillar davomida bu ta’limot ilk bor fransuz tilshunosi Anri Veyl tomonidan ishlab chiqilgan, deb hisoblangan. Biroq rus olimi V.P.Danilenko bu fikrga qarshi dalillar keltirib, gapning aktual bo‘linishiga oid asosiy tushunchalar, ayniqsa, “rema” atamasi, XVIII asrning ikkinchi yarmidayoq fransuz va nemis olimlarining ilmiy ishlari orqali aniq ifodalanganini ta’kidlagan.[1]

Gapning aktual bo‘laklarga bo‘linishi tushunchasi XIX asrda psixologik yo‘nalish ta’sirida shakllanib, so‘z tartibi masalasini tadqiq etish bo‘yicha yetakchi omilga aylangan.

Endi esa ayrim olimlarning aktual bo‘linish tarixi borasidagi qarashlarini ko‘rib chiqamiz. Xususan, O.A.Krilova[2] bu nazariyaning rivojlanish tarixini to‘rtta bosqichga ajratadi:

XVIII asrning ikkinchi yarmidan XIX asr boshlarigacha – so‘z tartibining qonuniyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqilgan.

XIX asr oxiridan XX asrning birinchi yarmigacha – bu davr gapning aktual bo‘linishini psixologik talqinda o‘rganish davri hisoblanadi.

XX asrning birinchi yarmi – V.Matezius va qator sovet olimlari (germanistlar) tomonidan gapning aktual bo‘linishini lingvistik asosda tadqiq etish boshlangan.

XX asrning ikkinchi yarmi – O.A.Krilova fikricha, bu davr I.P.Raspopov ishlaridan boshlab, gapning aktual bo‘linishi haqidagi ta’limotning zamonaviy bosqichiga asos solingan.

Yuqoridagi birinchi bosqichga Sh.Bato, Monboddo, I.Adelung, K.Bekker, T.de-Marse, N.Boze, A. Veyl kabi olimlarning ilmiy ishlari taalluqlidir. Ushbu tadqiqotlarda “aktual bo‘linish” termini shartli ravishda qo‘llanilgan, chunki, dastlab, bu atama “tema” va “rema” tushunchalariga nisbatan qo‘llanilgan.

I. Adelung ega haqida gapirganda, uni asosiy tushuncha sifatida ko‘rib chiqadi va u noaniq narsani bildiradi, deb hisoblagan. Shu sababli u “ega” va “kesim” terminlarining mazmunini, shuningdek, “subyekt” va “predikat” tushunchalarini o‘ziga xos tarzda talqin qilgan.

Anri Veylning tadqiqot ishida so‘z tartibini aktual bo‘laklanish bilan bog‘lashga ilk urinish amalga oshirilgan.[3] I.Adelungdan farqli o‘laroq, A.Veyl ega deganda gapda nimaning ustida so‘z borayotgan bo‘lsa, o‘shani tushunadi, kesim esa ega haqida biror ma’lumot beruvchi gap bo‘lagi sifatida talqin qilinadi.

“Ega bayonotning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, kesim esa bayonotning o‘zidir. Shu sababli, odatda, ega birinchi o‘rinda, kesim esa ikkinchi o‘rinda keladi. Biroq gapning birinchi o‘rnida boshqa bo‘laklar ham kelishi mumkin, agar ular bayonotning boshlang‘ich nuqtasi vazifasini bajarsa”.[4]

Demak, A.Veyl nuqtayi nazariga ko‘ra, gapdagi subyekt tematik vazifani bajaradi, ya’ni, u tema bilan bog‘liq bo‘ladi, predikat esa rematik xarakter kasb etadi. Aksincha, I.Adelung “ega” tushunchasini “rema” bilan bog‘laydi.

Yuqorida qayd etilganidek, gapning aktual bo‘linishi nazariyasi so‘z tartibi muammosi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu masala XVIII asr oxiridan boshlab, ilmiy tilshunoslikda muhim mavzulardan biriga aylangan.

N.Boze o‘z qarashlarida gapdagi tabiiy (to‘g‘ri) so‘z tartibini inson tafakkurining tabiiy oqimi bilan bog‘laydi, biroq bu tartib hodisalar rivojlanishining obyektiv ketma-ketligiga emas, balki ongdagi fikr yuritish tizimiga asoslangan, deb hisoblaydi. U bu holatni “analitik tartib” deb ham atagan. Uning fikricha, bu tartib fikrlashning mantiqiy va ketma-ket tuzilishini aks ettiradi, avvalo, subyekt tasvirlanadi, keyin uning belgilariga, so‘ngra bu belgilarni aniqlovchi qo‘shimcha ma’lumotlarga o‘tiladi.

Boze bu tartibni universal deb hisoblab, gapda subyekt odatda predikatdan oldin kelishini, aniqlovchi esa undan keyin joylashishini asoslagan. Unga ko‘ra, teskari so‘z tartibi, ya’ni inversiya – normativ tartibdan og‘ish sifatida qaraladi.

Shu davrda faoliyat olib borgan yana bir tilshunos Sh.Bato esa so‘z tartibining ikki shaklini ajratib ko‘rsatadi: grammatik va notiqlik tartibi. Keyinchalik, V.Matezius bu ikki tur tartibni obyektiv (grammatik) va subyektiv (notiqlik) deb ataydi. Sh.Bato grammatik tartibni sun’iy deb baholagan, chunki bu tartib ko‘proq ilmiy yozma uslubda qo‘llanadi. Notiqlik tartibi esa og‘zaki va badiiy (jumladan, she’riy) nutqda ishla-

---

[1] Даниленко В.П. У истоков учения об АЧП (период до А.Вейля). Филологические науки, № 5, М., 1990, с. 39.

[2] Крылова О.А. Порядок слов в русском языке. 3-е изд. М.,1986, с. 77–78.

[3] Weil, H. De l'ordre des mots dans la langues anciènnes comparées aux langues modernes. Paris, 1944, 32 p.

[4] Крылова О.А. Порядок слов в русском языке. 3-е изд. М.,1986, с. 77–78.

tilgani uchun, u tomonidan tabiiy tartib sifatida talqin etilgan. U o‘z qarashlarini quyidagicha umumlashtirgan: “Agar birinchi tartibni u ‘ilm-fan tartibi’ deb nomlagan bo‘lsa, ikkinchisini esa qalb tartibi deb atagan”.[1]

Sh.Bato o‘z tadqiqotlarida quyidagicha fikr bildiradi: “Notiqlik konstruksiyalarida asosiy obyekt doimo bir xil bo‘lavermaydi. U ayrim hollarda harakat subyekti, boshqa hollarda esa harakat obyekti, ba’zida esa harakatning o‘zi yoki uning sharoitlari, usuli sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, fe’l, ravish, subyekt, aniqlovchi va fe’lga bog‘liq boshqa birliklar vaqt-vaqti bilan gap boshida joylashishi mumkin”.[2] Shundan kelib chiqilsa, Sh.Bato gapdagi so‘z tartibini belgilovchi asosiy omil sifatida uning aktual bo‘linishini ko‘rsatadi. U notiqlik tartibiga ega bo‘lgan gaplar grammatik tartibga ega konstruksiyalar bilan aynan bir xil axborotni ifodalaydi, degan fikrga qo‘shilmaydi. Uning ta’kidlashicha, mazkur axborot tarkibiy jihatdan tema va rema elementlari orqali shakllanadi.

Bu masalani chuqur o‘rgangan yana bir tilshunos K.Bekker bo‘lib, uning ilmiy xizmati shundaki, u inversiyani gapning aktual bo‘linish vositasi sifatida ko‘rib chiqish bilan birga, mantiqiy urg‘uning roliga ham alohida e’tibor qaratgan. Bekkerning fikricha, “inversiya va mantiqiy urg‘uning kommunikativ tuzilmadagi roli o‘zaro uyg‘un, hatto teng”.[3]

Ushbu qarashni u turli misollar orqali isbotlaydi. Masalan, “Der Mund des Gerechten bringt Weisheit” jumlasida mantiqiy urg‘uning qaysi so‘zga tushishiga qarab gapning tema va rema bo‘linishi farqlanishi mumkin. Agar urg‘u “Gerechten” (odamga nisbatan) so‘ziga tushsa, bu bo‘lak rematik rolni bajaradi, ya’ni yangi ma’lumot sifatida baholanadi. Aksincha, agar urg‘u “Weisheit” (donolik) so‘ziga tushsa, u holda ushbu so‘z rema sifatida ajralib turadi. Bu esa shuni anglatadiki, gapda aktual bo‘linishni faqat so‘z tartibi orqali emas, balki mantiqiy urg‘u yordamida ham ifodalash mumkin.

Bekkerga ko‘ra, mantiqiy urg‘u – bu aktual bo‘linishni ifodalovchi yanada universal vosita bo‘lib, u inversiyadan ko‘ra ko‘proq imkoniyatlarga ega. Sababi inversiya gapning grammatik tuzilishiga bog‘liq holda amal qiladi, ayniqsa, fleksiyasi (ya’ni so‘z shaklini o‘zgartiruvchi morfologik vositalar) kam bo‘lgan tillarda. Bunday tillarda so‘z tartibi qat’iy bo‘lib, uni o‘zgartirish imkoniyatlari cheklangan. Aksincha, mantiqiy urg‘u tilning grammatik imkoniyatlaridan mustaqil holda, kommunikativ maqsadga muvofiq tarzda axborotni ajratish imkonini beradi.

Gapning aktual bo‘linishini o‘rganishga qaratilgan dastlabki tadqiqotlar davomida bu hodisaning mohiyati to‘liq anglanmagan, atamalar tizimi esa hali shakllanmagan edi. Shunga qaramay, bir jihat ravshan bo‘lib chiqqan – bu ham bo‘lsa, gap bo‘laklarining faqat grammatik belgilari ularning nutqdagi funksional vazifasini to‘liq aniqlab bera olmaydi. Ayniqsa, hind-yevropa tillarida so‘z tartibining qoidalari gapning rasmiy tuzilishiga emas, balki tema va rema o‘rtasidagi semantik munosabatlarga asoslangan bo‘ladi. Shu bois nafaqat oddiy so‘z tartibi, balki undan og‘ish bo‘lgan invertilgan konstruksiyalar ham – gap bo‘laklarining ketma-ketligidan tashqari, ularning mazmuniy-kommunikativ munosabatlaridan kelib chiqqan holda, ya’ni tema va rema o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida tahlil qilinishi lozim.

Gapning aktual bo‘linishi haqidagi qarashlarning navbatdagi bosqichi psixologik yondashuv doirasida shakllangan bo‘lib, bu bosqich G.fon der Gabelents, G.Paul, V.P.Slanskiy, F.F.Fortunatov, A.M. Peshkovskiy kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. Bu davrda gap, asosan, psixologik hukmning nutqiy ifodasi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotchilarning fikricha, “gap bu til vositasida ifodalangan ramziy birlik bo‘lib, u gapiruvchining ongida mavjud bo‘lgan tasavvurlar tizimini ifodalaydi va bu tasavvurlar o‘rtasidagi munosabatlarni tinglovchiga yetkazish vositasidir”.[4]

Mazkur yondashuvda gap bo‘laklari an’anaviy grammatik funksiyalardan ko‘ra, psixologik subyekt va psixologik predikat nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Ya’ni, har qanday gap bo‘lagi – mazmun va kontekstga qarab, bu ikki funksiyadan birini bajarishi mumkin. Bu esa gapdagi birliklarning rolini yanada nozik psixologik-me’yoriy jihatdan baholash imkonini yaratgan.

XIX asr nemis tilshunosi Georg fon der Gabelents psixologik yondashuvning asoschilaridan biri sifatida tan olinadi. U nutq jarayonida ketma-ket vujudga keladigan tasavvurlarni izchil o‘rganib, gapning birinchi elementi sifatida psixologik subyektni ko‘rsatgan. Unga ko‘ra, bu birlik gap mazmunining asosiy mazmuniy markazini tashkil etadi. Ikkinchi komponent esa psixologik predikat bo‘lib, gapiruvchi ushbu subyekt haqida bildiradigan axborotni ifodalaydi.

---

[1] Даниленко В.П. У истоков учения об АЧП (период до А.Вейля). Филологические науки, №5, М., 1990, с. 85.
[2] O‘sha manba. 84 c.
[3] O‘sha manba. 87 c.
[4] Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. Изд. 7-ое. М., 1956, 226 с.

**Xulosa.** Bu bosqichdagi izlanishlar sintaksisda gapni ikki bo‘lakka – binar tuzilishga ajratish g‘oyasini kengaytirgan bo‘lsa-da, bu tahlillar grammatik doira bilan cheklanmaydi. Asosiy yutuqlardan biri shundaki, tilshunoslar gapning grammatik tuzilmasi bilan uning kommunikativ-semantik tuzilishi har doim ham to‘g‘ridan to‘g‘ri mos kelmasligini tan oldilar.

Aynan shu nuqtadan boshlab, gapning aktual bo‘linishi bilan bog‘liq hodisalarni, jumladan, so‘z tartibi, intonatsiya, mantiqiy urg‘u, semantik urg‘u hamda ikkinchi darajali gap bo‘laklari – o‘rganishga yangicha yondashuv shakllandi. Bu tahlil, o‘z navbatida, so‘zlar ketma-ketligi va mazmun orasidagi ichki psixologik bog‘liqlikni ochib berishga xizmat qildi.

**Xolisova Gavharoy Mannobjon qizi (PhD, Andijon davlat chet tillari insituti dotsenti; gavharxolisova@gmail.com),**
**Sobirjonov Ravshanbek Tolipjon o‘g‘li (filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishi 2-kurs talabasi)**

## TIJORIY DISKURSNING NAZARIY TAHLILIGA DOIR MULOHAZALAR

***Annotatsiya.*** *Tijoriy muloqot va tijoriy diskurs biznes-diskursning subtiplaridan biri, ishbilarmonlik muloqotini anglatadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlilida aks etganidek, zamonaviy ilmiy adabiyotda tijoriy muloqotni, tijoriy diskursni tushunishga yondashuvlar mavjud emas. L.S.Vigotskiyning nazariyasi asosida A.A.Leontyev nutq faoliyatini “bir tomondan, muayyan natijaga erishishga yo‘naltirilgan murakkab jarayonlar yig‘indisi bo‘lib, bu natija ayni paytda mazkur faoliyatning obyektiv harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *nutq faoliyati, samarali muloqot shakllari, muloqotning murakkab tabiati, tijoriy diskurs.*

## ВОПРОСЫ ТЕОРЕТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА КОММЕРЧЕСКОГО ДИСКУРСА

***Аннотация.*** *Коммерческая коммуникация и коммерческий дискурс являются одним из подвидов делового дискурса, под которым понимается деловое общение. В то же время, как показывает анализ научной литературы, в современной научной литературе отсутствуют подходы к пониманию коммерческой коммуникации и коммерческого дискурса. Основываясь на теории Выготского, А.А.Леонтьев определяет речевую деятельность как «с одной стороны, совокупность сложных процессов, направленных на достижение определенного результата, и этот результат является в то же время объективной движущей силой этой деятельности.*

***Ключевые слова:*** *речевая деятельность, формы эффективного общения, комплексный характер общения, коммерческий дискурс.*

## REMARKS ON THE THEORETICAL ANALYSIS OF COMMERCIAL DISCOURSE

***Annotation.*** *Commercial communication and commercial discourse are one of the subtypes of business discourse, which means business communication. At the same time, as reflected in the analysis of scientific literature, there are no approaches to understanding commercial communication and commercial discourse in modern scientific literature. L.S.Based on Vygotsky's theory, A.A.Leontiev defines speech activity as "on the one hand, a set of complex processes aimed at achieving a certain result, and this result is at the same time the objective driving force of this activity.*

***Key words:*** *speech activity, forms of effective communication, complex nature of communication, commercial discourse.*

**Kirish.** Inson jamiyatida kommunikatsiya deganda fikrlar, bilimlar, his-tuyg‘ular, xatti-harakat sxemalari va boshqalar bilan almashish jarayoni tushuniladi. Muloqot inson mavjudligining ajralmas qismi hisoblanadi. Kundalik hayotda u biz uchun odatiy va tushunarli hodisa sifatida qabul qilinadi. Ammo barcha davrlarda inson muloqoti faylasuflar, psixologlar, sotsiologlar, lingvistlar va madaniyatshunoslar tomonidan katta qiziqish uyg‘otib kelgan. Bu esa “Muloqot, bir qarashda, aniq va ravshan tuyuladigan tushunchalar qatoriga kiradi, ammo inson muloqoti murakkab va oson izohlab bo‘lmaydigan hodisadir”,[1] degan fikrni tasdiqlaydi. Miloserdovaning fikriga ko‘ra, muloqot hodisasi sodda ko‘rinishiga qaramay, aslida, ko‘p qirrali va murakkab jarayon bo‘lib, turli xil tushunchalar va ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Bu fikr shuni anglatadiki, muloqotni to‘liq anglash va uni izohlash uchun fanlararo yondashuv talab etiladi. Miloserdovaning ushbu fikri muloqotning murakkab tabiati va uni tadqiq etishda fanlararo yondashuvning zarurligini tasdiqlaydi. Muloqot bir qarashda oddiy va tabiiy jarayon sifatida ko‘rinsa ham, uni chuqur tahlil qilganda, lingvistik, sotsiologik, psixologik, madaniy, hatto falsafiy jihatlarni o‘z ichiga oladigan ko‘p qirrali hodisa

[1] Милосердова О.А. Теоретические основы общения и коммуникации. Москва, 2001, с. 3.